



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xamidova Diyora Jamshedovna<sup>1</sup>,  
Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich<sup>2</sup>

<sup>1</sup>O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistranti. E-mail:  
xamidovadiyora410@gmail.ru, Tel.: +998915543964

<sup>2</sup>O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.  
E-mail: fma@rambler.ru, Tel.: +998979180612

## UMUMTA'LIM MAKTABLARI 3-SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'YINLARDAN VA INTERFAOL ETODLARDAN FOYDALANIB O'RGATISH ORQALI KOMMUNIKATIV TA'LIM HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada umumta'lim maktablari 3-sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'yinlardan va interfaol metodlardan foydalanib o'rgatish orqali kommunikativ ta'lim harakatlarini rivojlantirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi keltirilgan. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili bo'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida o'yinlar o'tkazish mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi bo'limida ingliz tili darslarida o'tkaziladigan o'yinlar bo'yicha asosli ma'lumotlar berilgan. Tahlil va natijalar bo'limida 3-sinf ingliz tili darslarida SWOT tahlili va Insert texnologiyalarini qo'llashga doir ko'rsatmalar berilgan va xulosa keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** O'yin, interfaol metodlar, dars jarayoni, Insert texnologiyasi, SWOT tahlili metodi, xotirani mustahkamlovchi o'yin, quvnoq topishmoqlar, so'z bog'liqliligi o'yini.

**Аннотация.** В статье рассматривается важность развития коммуникативной учебной деятельности при обучении английскому языку учащихся 3-х классов общеобразовательных школ с использованием игровых и интерактивных методов. В разделе анализа литературы по теме были проанализированы исследования, проведенные по теме проведения игр на уроках английского языка у учащихся младших классов. В разделе «Методология исследования» приведены основные сведения об играх, проводимых на занятиях по английскому языку. В разделе анализа и результатов даны указания по использованию технологий SWOT-анализа и Insert на уроках английского языка в 3 классе и дано заключение.

**Ключевые слова:** Игра, интерактивные методы, процесс обучения, технология «Insert», метод SWOT-анализа, игра на укрепление памяти, веселые загадки, игра в словесные ассоциации.

**Annotation:** The article discusses the importance of developing communicative learning activities when teaching English to third grade students in secondary schools using game and interactive methods. In the section of the analysis of the literature on the topic, the researches conducted on the topic of conducting games in the English language classes of elementary school students were analyzed. In the research methodology section, basic information on games held in English language classes is given. In the section of analysis and results, instructions on the use of SWOT analysis and Insert technologies in third grade English lessons are given and a conclusion is given.

**Keywords.** Game, interactive methods, teaching process, Insert technology, SWOT analysis method, memory strengthening game, fun riddles, word association game.

### **Kirish.**

Boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012- yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014- o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibli ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshlaydilar. [1]

Keltirib o'tilgan usul asosida o'quv jarayonini tashkil etish bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'yin shaxsiy rivojlanish uchun ham muhimdir, chunki uning rivojlanishi davomida musobaqada qatnashgan o'quvchi haqiqatan ham o'z jamoasiga yordam berishni xohlaydigan, to'g'ri javob topishga harakat qiladigan, faol bo'lgan dars vaziyati yaratiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday vaziyatlar nafaqat kuchli, balki zaif o'quvchilarga ham o'zini namoyon qilish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida o'yinlar o'tkazish mavzusida Jizzax davlat pedagogika instituti chet tillari fakulteti talabasi Xonto'rayeva Shaxnoza "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiya", Hasanboy Rasulov o'zining "Ingliz tilida qiziqarli o'yinlar", Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi Komiljonova Shahrizoda Xushnud qizi "Ingliz tili darslarida o'yin metodidan foydalanish" kabi maqolalarni yozganlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish muammolari bo'yicha F.Vapayeva, M.F.Qurbonova, T.N.Bekpo'latova va boshqalar maqola yozib, tadqiqot olib borishgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passiv o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Quyida ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlar ko'rsatildi.

### **Xotirani mustahkamlovchi o'yin (Memory game)**

Bir o'quvchi bitta gap aytadi boshqa o'quvchi shu gapga bir so'z yoki gap qo'shadi.

1-o'quvchi: My friend came.

2-o'quvchi: My friend and his mother came.

3-o'quvchi: My friend and his mother came by train.

Qaysi o'quvchi so'z qo'sha olmasa yoki xatoga yo'l qo'ysa o'yinni tark etadi.

Masalan, bu o'yinni 3-sinf ingliz tili darsligining 35-betidagi 5-mashq asosida tashkil qilish mumkin [5]:

"What are those?" degan savolga:

1-o'quvchi: They are butterflies.

2-o'quvchi: They are butterflies and turtle.

3-o'quvchi: They are butterflies, turtle and leaves.

### **Quvnoq topishmoqlar. (Merry Riddles)**

O'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

"At school" bo'limida topishmoqlarni hazil tariqasida quyidagicha tuzish mumkin [5]:

1. What is white when it is dirty and black when it is clean?

2. What has two arms and four legs?

3. What goes up when rain comes down?

4. What man wears the biggest hat?

5. What islands are good to eat?

6. What do you have to do before you can get off the train?

7. What do you usually see people eat their soup with?

8. Why is E the most important letter?

Solutions to the riddles

1. A blackboard.

2. An armchair.

3. An umbrella.

4. The one with biggest head.

5. The Sandwich Islands.

6. Get on it, of course.

7. Your eyes.

8. Because it comes first in “everything”.

### **So‘z bog‘liqligi o‘yini (Word association)**

Bir sinf turkumiga oid so‘zlar olinadi. Masalan: Uy jihozlari jihozlariga oid so‘zlar.

1-o‘quvchi: a Sofa.

2-o‘quvchi: a table.

3-o‘quvchi: a chair.

4-o‘quvchi: the piano.

Qaysi o‘quvchi tezda so‘z topa olmasa o‘yinni tark etadi [4].

Bu o‘yinni “School days” bo‘limida hafta nomlarini o‘rganish jarayonida qo‘llasak ham bo‘ladi [5]:

1-o‘quvchi: Monday.

2-o‘quvchi: Tuesday.

3-o‘quvchi: Wednesday.

4-o‘quvchi: Thursday.

5-o‘quvchi: Friday.

6-o‘quvchi: Saturday.

7-o‘quvchi: Sunday.

### **Tahlil va natijalar.**

3-sinf ingliz tili darsligi “In the yard” (hovlida), “At scholl” (maktabda), “School days” (maktab kunlari), “My day” (mening kunim), “Home time” (uy vaqtida yoki uyda), “Hobbies” (hobbilarim, qiziqishlarim), “At the market” (do‘konda), “At the beach” (sohilda) degan katta bo‘limlardan tashkil topgan. Har bir bo‘lim lug‘at, grammatika, qobiliyatlar, hikoya, tovushlarni o‘rganish, mavzuning boshqa fanlar bilan bog‘liqliligi yuzasidan savollardan iborat. Har bir bo‘lim so‘ngida nazorat ishi o‘tkaziladi.

**Interfaol** so‘zi ingliz tilida (“Inter”- o‘zaro, “act”-harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilish yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo‘lish ma‘nosini anglatadi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchi shaxsida mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish imkoniyati oshadi. O‘quv jayonining interfaol ta‘lim turlariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi.

Interfaol metodlarga “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta‘lim” va boshqalar kiradi.

Interfaol ta‘lim strategiyalariga “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zigzag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor”lar misol bo‘ladi. Interfaol ta‘lim metodlari tarkibidan interfaol ta‘lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma‘lum ma‘noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta‘lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol grafik organayzerlarga “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar kiradi. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta‘lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q [2].

**SWOT tahlili** strategik rejalashtirish usuli bo‘lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash va ularni to‘rt toifaga bo‘lishdan iborat:

- **S** kuchlari (S),
- **Zaifliklar** (W),
- Imkoniyatlar **haqida** (O),
- **Tahdidlar** (T).

Kuchli ( **S** ) va kuchsiz ( **W** ) tomonlar tahlil qilinayotgan ob'ektning **ichki muhitining** omillari, (ya'ni ob'ektning o‘zi nimaga ta'sir qilishi mumkin); Imkoniyatlar ( **O** ) va tahdidlar ( **T** ) **atrof-muhit** omillari (ya'ni, ob'ektga tashqaridan ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan va ob'ekt tomonidan boshqarilmaydiganlar). Masalan, korxonada o‘zining savdo assortimentini boshqaradi - bu ichki muhit omili, ammo savdo qonunlari korxonada tomonidan nazorat qilinmaydi - bu tashqi muhit omili [3].

3-sinf ingliz tili darsligining “At school” bo‘limini boshlashdan oldin SWOT tahlilini qo‘llasak samaraliroq bo‘ladi:

<b>Strengths</b>	<b>Weaknesses</b>	<b>Opportunities</b>	<b>Threats</b>
1. Small class sizes. 2. Strong community. 3. New gymnasium. 4. Free books for youngest classes.	1. Need for updated facilities. 2. Limited volunteer help. 3. Communication to stakeholders. 4. Low/declining enrollment.	1. Parent ambassador program. 2. Home-school population. 3. Population growth. 4. Organizing camps in nature.	1. Misconceptions about education. 2. New charter schools. 3. Neighborhood safety. 4. Transportation from school.

6-bo‘lim 73-betdagi “Sports we like” matni Insert texnologiyasi asosida yoritildi [5]:

**Sports we like.**

Meet Josh.	V
He's ten years old, and he wants to be a soccer player.	+
Josh goes to a soccer club on Tuesdays and Thursdays after school.	+
He plays soccer on Saturdays and Sundays, too.	V
Josh also plays basketball, and he goes swimming.	+
Josh has a healthy diet.	?
His favorite dinner is chicken with potatoes or rice and vegetables.	-
He likes fruit, too.	V
His favorite drink is a banana milkshake.	+

V – bilganlarimni tasdiqlaydi

+ – yangi axborot

- – bilganlarimga zid keladi

? – meni o'ylantirib qo'ydi

Shu kabi pedagogik texnologiyalardan, interfaol metodlardan foydalanilganda dars samaradorligi ortadi, hamda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda bunday usulda darslarni tashkil qilish talabalarda o'quv materiallari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni samarali shakllantirishga, mavzuning mazmunini to'laroq ochib berishga, tushunib yetishga hamda fanlar bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Darslarda shu kabi metodlardan foydalanilganda bolaning mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda nutqi ravon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-2126032>

2. Interfaol ta'lim metodlari. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Prezentatsiya.

<https://staff.tiiame.uz/storage/users/167/presentations/HXsoMNnIDU93xyqqYufMSo2VD2NwaSZG6gpDObSa.pdf>

3. SWOT tahlili. [https://uz.wikipedia.org/wiki/SWOT\\_tahlili](https://uz.wikipedia.org/wiki/SWOT_tahlili)

4. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar. Uslubiy qo'llanma. Navoiy, 2007. -37 b.

5. English language Grade 3. Uzbekistan education for excellence program. This customized edition includes original sources owned and licensed by the Cambridge University Press.